XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-146-7-104-K/25 Toyloq tumani

2026-yilda Toyloq tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27- va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq, tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 30-dekabrdagi (27-10392-son) xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining o‘n sakkizinchi sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2026-yil uchun Toyloq tumani hududida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashiga ushbu qarorning 1- va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo‘llash tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sharipov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Qahorov), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Sindorov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Mirzoyev) hamda “Qo‘shchinor” gazetasi (M.Yuldashova)ga maskur qaror bo‘yicha ma’lumotlar yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Sidikov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sharipov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **RAXMATULLAYEV BEHZOD RAXMATULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-146-7-104-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Toyloq tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-146-7-104-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

ming so‘mda

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Toyloq tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,20	1,30